

Hujjat kodi: EF54693345

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT
VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGINING
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
BOSHQARMASI**



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI
JASLAR SIYASATI HÁM SPORT
MINISTRIGI JANÍDAGÍ
JASLAR ISLERI AGENTLIGINIŇ
QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI BASQARMASI**

T.K.AYMURATOV

Basshiliqqa aliwdi sorayman

№02-06/68
8 Fevral 2024

M.M.TURSINOV
Бошлиқ ўринбосари





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG‘I

20 24 y. “ 31 ” yanvar

№ 01-10/24

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-yanvardagi PF–18-son Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-yanvardagi PF–18-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-yanvardagi PF–18-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda – Farmon) ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmonga muvofiq Yoshlar ishlari agentligi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tizimidan Vazirlar Mahkamasi bo‘ysunuviga o‘tkaziligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatining tuzilmasi 1-ilovaga;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalari tuzilmasi 2-ilovaga;

Tuman (shahar) yoshlar ishlari bo‘limlarining tuzilmalari 3-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi PF–18-son Farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga oid Yoshlar ishlari agentligining Nazorat rejasi (keyingi o‘rinlarda – Nazorat reja) 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Nazorat rejada belgilangan vazifalar va tadbirlar:

o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik mas‘ul ijrochi bo‘lgan Agentlikning markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo‘linmalari rahbarlari zimmasiga yuklansin;

ijrosi uchun talab etiladigan sarf-xarajatlar belgilangan muddatlarda alohida buyruq asosida amalga oshirilishi belgilansin.

5. Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'linmalari boshliqlari har oyning 25-sanasiga qadar nazorat reja ijrosi bo'yicha Axborot tahlil va ijro nazorati bo'limiga hisobot taqdim etib borsin.

6. Axborot tahlil va ijro nazorati bo'limi (U.Sadikov) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi va Agentlik direktoriga nazorat reja ijrosi yuzasidan tahliliy ma'lumot kiritib borsin.


7. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



A. Sa'dullayev


Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatining TUZILMASI



Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni – **72 nafar**.

Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq belgilanadi.


Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalarining TUZILMASI



Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni – 13 shtat birligi, jami — 182 shtat birligi.

Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq belgilanadi.

Tuman (shahar) shahar yoshlar ishlari bo'limlarining TUZILMASI



Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni — 2,5 - 3 shtat birligi, jami — 522 shtat birligi.

** Samarqand shahar, Urgut, Pasdarg'om va Denov tumanlarida 1 shtat birligi, qolgan 204 ta tuman (shahar)larga 0,5 shtat birligi belgilanadi.*

*** Hududdagi mahallalar sonidan kelib chiqqan holda mos ravishda belgilanadi.*

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi PF-18-son Farmonida
belgilangan vazifalarni amalga oshirishga oid Yoshlar ishlari agentligining
NAZORAT REJASI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
Yoshlar ishlari agentligi Vazirlar Mahkamasi bo'ysunuviga o'tkazilganligi munosabati bilan tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish				
1.	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to'g'risida nizom loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. <i>(Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmoniga 2-ilovaning izoh qismi)</i>	1. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqidagi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish. 2. Qaror loyihasini belgilangan tartibda kelishish va huquqiy ekspertiza uchun kiritish. 3. Qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil 10-fevral 2024-yil 25-fevral 2024-yil 10-mart	Bosh yuriskonsult <i>(A.Xalikov)</i> , markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari
2.	Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati, hududiy yoshlar ishlari boshqarmalari va tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limlari xodimlarning (mahalladagi yoshlar yetakchilarining) lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash to'g'risidagi Agentlik direktori buyruqlarini tasdiqlash.	1. Agentlik direktori buyruq loyihalarini tayyorlash. 2. Buyruq loyihalarini belgilangan tartibda kelishish va imzoga kiritish.	2024-yil 15-fevral	Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi <i>(S.Xamdamov)</i> , Markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari, Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalari, tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limlari
3.	Agentlik markaziy apparati, hududiy yoshlar ishlari boshqarmalari va tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limlari hamda Agentlik huzuridagi Yoshlar muammolarni o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining shtatlar jadvallarini tasdiqlash va moliya organlariga tasdiqlash uchun taqdim etish.	1. Shtatlar jadvallarini tasdiqlash. 2. Shtatlar jadvallarini tasdiqlash uchun moliya organlariga taqdim etish.	2024-yil 1-fevral	Moliya-iqtisod bo'limi <i>(J.Rasulov)</i> , Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi <i>(S.Xamdamov)</i> , Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalari,

				tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limlari, Yoshlar muammolarni o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti (<i>A.Jalilov</i>)
4.	Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarni o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining ustavini va tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to'g'risidagi Agentlik direktori buyrug'ini tasdiqlash.	1. Institut ustavini va tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to'g'risidagi buyruq loyihasini tayyorlash. 2. Buyruq loyihasini belgilangan tartibda kelishish va imzoga kiritish.	2024-yil 10-fevral	Yoshlar muammolarni o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti (<i>A.Jalilov</i>) Bolalar, xotin-qizlar, ta'limdagi yoshlar va volontyorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash boshqarmasi (<i>U.Sattarov</i>) Bosh yuriskonsult (<i>A.Xalikov</i>), Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (<i>S.Xamdamov</i>)
5.	Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati, Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalari, tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limlari va Agentlik huzuridagi Institutni qayta davlat ro'yxatidan o'tkazish va muhr, shtamp, blankalarni almashtirish.	1. Tashkilotni qayta davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilish. 2. Tashkilotning muhr, shtamp, blankalarni belgilangan tartibda almashtirish choralarini ko'rish.	2024-yil 10-fevral	Davlat xaridlarini tashkil etish va xo'jalik bo'limi (<i>I.Ziyodilloev</i>), Moliya-iqtisod bo'limi (<i>J.Rasulov</i>), Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalari, tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limlari, Yoshlar muammolarni o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti (<i>A.Jalilov</i>)
6.	Sport vazirligiga qonunchilik hujjatlariga Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflar kiritish.	1. Qonunchilik hujjatlariga Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflarni tayyorlash. 2. Takliflarni Sport vazirligiga kiritish.	2024-yil 10-fevral	Bosh yuriskonsult (<i>A.Xalikov</i>), markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari